O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI
CHUST TUMANI HOKIMINING

# Q A R O R I

2023 - yil 6 - noyabr 391-6-89-Q/23 Chust tuman hokimligi

## Chust tumanida yo'l belgilarini o'rnatish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi “O`zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PF-27-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi “Avtomobil yo`llarida inson xavfsizligini ishonchli ta`minlash va o`lim xolatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-190-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo`l harakati qoidalarini tasdiqlash tasdiqlash to`g`risida”gi 172-sonli qarori va tuman yo`llardan foydalanish unitar korxonasining 2023-yil 5-sentabrdagi 144-D-sonli xatini ko`rib,

**QAROR QILAMAN:**

1. Chust tuman yo`llardan foydalanish unitar korxonasining 2023-yil 5-sentabrdagi 144-D-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hududidagi 4H 445 “Chust temiryo`l bekati-Yangiyer q” avtomobil yo`lining 1-2-kmlari oralig`iga (5.16.1, 5.16.2 piyodalar o`tish joyi va 1.31 sun`iy yo`l notekisligi) yo`l belgilari o`rnatilsin.

3. Tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi (B.Yettiboyev) ushbu yo'l belgilarini o'rnatish choralarini ko'rsin.

4. Yo`l harakati qatnashchilari “Yo`l harakati xavfsizliigi to`g`risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va “Yo`l harakati qoidalari”ga muvofiq o`rnatilgan yo`l belgilari va yo`l chiziqlariga amal qilishlari shuningdek, berilgan vakolat

doirasida yo`llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko`rsatmalarini so`zsiz bajarishlari shart.

5. Tuman IIB YHXB ga mazkur yo`l belgilari o`rnatilishi avtomobil yo'lida harakat xavfsizligini ta'minlash va doimiy ravishda nazorat qilib borish vazifasi yuklatilsin.

6. “Chust haqiqati” gazetasi tahririyati va tuman hokimligining axborot xizmatiga ushbu qarorning tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga hamda boshqa OAVlarda keng yoritishini ta'minlasin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari M.Mirzaliyev zimmasiga yuklatilsin.

8. Qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Tuman hokimi** **B.Xamdamov**